

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARGA QARSHI KURASHDA PROKURATURA ORGANLARINING O'RNI

Durdiboev Salimjon Maxmutjonovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

salimjondurdiboev88@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16777425>

Ma'lumki so'nggi yillarda axborot texnologiyalari barcha tarmoq va sohalarni qamrab olmoqda. Jumladan huquqni muhofaza qilish organlari hamda sohalari bo'yicha ham. Agar bu haqida to'xtalib o'tilsa quyidagilar ma'lum bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashda prokuratura organlarining vakolatlari va funksiyalari bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 143-moddasida prokuratura organlari qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ sifatida belgilangan bo'lib, bu norma ularning umumdavlat miqyosidagi nazorat funksiyasini mustahkamlaydi. Mazkur konstitutsiyaviy norma asosida shakllangan sohaga oid maxsus qonunchilik esa prokuratura faoliyatining mazmuni va tartibini belgilaydi.

Xususan, 2001 yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni prokuratura organlarining tuzilmasi, vakolatlari, asosiy funksiyalari va ularning huquqiy asoslarini batafsil yoritadi. Ushbu qonun prokuratura organlarining jinoyatlarni aniqlash, tergovga qadar tekshiruv ustidan nazorat, jinoyat ishlari bo'yicha qonuniylikni ta'minlash hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashdagi roli va ishtirokini huquqiy jihatdan belgilab bergan.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksida axborot texnologiyalari bilan bog'liq jinoyatlarning alohida turlari (masalan, kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy kirish, axborotni buzish, axborot vositalari orqali firibgarlik va boshqalar), ularni tergov qilish tartibi hamda jinoiy javobgarlik choralari aniq ko'rsatilgan. Bu hujjatlar kiberjinoyatlarni huquqiy tasniflash va ularga nisbatan muvofiq chora ko'rishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Soha bilan bog'liq boshqa maxsus qonunlar ham mavjud bo'lib, ular axborot makonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi va prokuratura faoliyatiga bevosita taalluqlidir. Jumladan, "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron hukumat to'g'risida", "Elektron raqamli imzo to'g'risida", "Kiberxavfsizlik to'g'risida" va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunlar zamonaviy texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va ularni bartaraf etishda huquqiy zamin yaratadi.

Shuningdek, davlat rahbari tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlar, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari hamda Bosh prokuratura tomonidan qabul qilingan idoraviy normativ hujjatlar ham axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashishda prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlar orqali prokuratura faoliyati zamonaviy xavf-xatarlarga moslashtirilmoqda va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashdagi faoliyati ko'p bosqichli va tizimli normativ-huquqiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Bu holat, bir tomondan, prokuratura faoliyatining huquqiy aniqligi va barqarorligini ta'minlasi, boshqa tomondan, davlat axborot xavfsizligini mustahkamlashdagi muhim vosita sifatida uning rolini oshiradi.

Mazkur huquqiy tizimning eng yuqori pog'onasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi turadi. Konstitutsiyaning 143-moddasida prokuratura organlari qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qiluvchi muhim organ sifatida belgilangan. Ushbu norma prokuratura organlarini davlat hokimiyati tizimidagi mustaqil nazorat instituti sifatida huquqiy jihatdan asoslaydi.

Konstitutsiyaviy darajadagi ushbu yondashuv prokuratura faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan, axborot texnologiyalari vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar sohasiga ham to'laonli tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatadi. Zero, zamonaviy huquqiy davlatda qonun ustuvorligini ta'minlash nafaqat an'anaviy muhitda, balki raqamli makonda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internet tarmog'i, elektron savdo, raqamli to'lov tizimlari, shaxsga doir ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot infratuzilmalarining keng miqyosda qo'llanilishi natijasida bu sohalarda sodir etilayotgan jinoyatlar soni va ko'lam ortib bormoqda. Shu sababli Konstitutsiyada belgilangan prokuratura nazorati raqamli makondagi huquqbuzarliklar ustidan ham to'laonli amalga oshirilishi zarur bo'lgan huquqiy ehtiyoj sifatida yuzaga chiqmoqda.

Prokuratura organlari o'zlarining Konstitutsiyaviy vakolatlariga tayangan holda, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, ularning oldini olish va qonunchilik asosida huquqiy choralarni ko'rishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiyaning 143-moddasi¹ O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda prokuratura faoliyatining eng muhim huquqiy poydevori hisoblanadi.

Mazkur konstitutsiyaviy norma bilan mustahkamlangan nazorat funksiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qonuniy qo'llanilishi ustidan doimiy va tizimli monitoring olib borishga imkon beradi. Bunda prokuratura nafaqat jinoyat sodir etilgandan so'ng javobgarlik choralari qo'llaydi, balki profilaktik nazorat, tahliliy monitoring va boshqa zamonaviy uslublardan ham foydalanadi.

Raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan taraqqiy etishi, internet tarmog'i, elektron savdo, raqamli to'lov tizimlari, shaxsga doir ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot infratuzilmalarining keng miqyosda joriy qilinishi bilan bir qatorda, bu sohalarda sodir etilayotgan jinoyatlarning murakkabligi va ko'lam ham ortib bormoqda. Shu sababli, Konstitutsiyada belgilangan prokuratura nazoratining raqamli makondagi jinoyatlar ustidan ham to'laonli amalga oshirilishi huquqiy zarurat sifatida yuzaga chiqadi.

Prokuratura organlari Konstitutsiyaviy vakolatlariga asoslanib, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, ularning oldini olish va qonunchilikka muvofiq ravishda huquqiy ta'sir choralari qo'llashda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiyaning 143-moddasi O'zbekiston Respublikasida axborot

¹ . O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.// <https://lex.uz/docs/6445145>.

texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda prokuratura organlarining faoliyati uchun eng yuqori huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur konstitutsiyaviy norma bilan mustahkamlangan nazorat funksiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qonuniy qo'llanilishi ustidan doimiy va tizimli monitoringni amalga oshirish imkonini beradi. Bunda prokuratura nafaqat jinoyat sodir etilganidan so'ng javobgarlik choralarini ko'rish bilan cheklanmaydi, balki profilaktik nazorat, tahliliy monitoring va boshqa zamonaviy usullardan ham foydalanadi.

Demak, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashishda prokuratura organlarining huquqiy faoliyati aynan Konstitutsiyada mustahkamlangan asosiy printsip – qonun ustuvorligi va qonunlarning bir xilda bajarilishini ta'minlash tamoyiliga tayanadi. Bu esa ularning raqamli xavfsizlikni ta'minlashdagi roli va mas'uliyatini yana-da orttiradi.

O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashdagi faoliyati bir qator asosiy normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan. Ushbu huquqiy asoslarning markazida 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun turadi. Mazkur Qonun prokuratura organlarining faoliyat yo'nalishlari, vazifalari va vakolatlarini zamonaviy huquqiy tizim talablari asosida aniqlashtirib berdi.

Xususan, Qonunning 2-moddasida prokuratura organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish belgilangan. Ushbu vazifa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilgan sharoitda ham dolzarb bo'lib, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini muhofaza qilish, raqamli muhitda qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek kiberjinoyatlarga qarshi kurashish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonun² prokuratura organlarining faoliyatini faqat jinoyatchilikka qarshi kurash doirasidagina emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi qonuniyligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi kengroq kontekstdagi mas'uliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Bu esa, zamonaviy axborot muhitida yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar, xususan kiberjinoyatlar – firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy to'plash va tarqatish, axborot resurslariga ruxsatsiz kirish, zararli dasturiy vositalardan foydalanish kabilarga qarshi kurashda prokuratura organlarining rolini kuchaytiradi.

Shuningdek, mazkur Qonunning 8-moddasida prokuratura organlariga jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish va tergov ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati berilgan. Bu norma bevosita axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Prokuratura tergov harakatlarining qonuniyligini ta'minlaydi, jinoyat ishlarining qonuniy asosda qo'zg'atilishini, tergov jarayonida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarining buzilmasligini nazorat qiladi. Ayniqsa, kiberjinoyatlar bo'yicha olib borilayotgan tergov harakatlarida – masalan, elektron firibgarlik, internet orqali tovlamachilik, kiberhujumlar, noqonuniy kontent tarqatish hollari – prokuratura o'zining huquqiy nazorat mexanizmlarini to'laqonli ishga soladi.

Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga nisbatan tergov vakolatlari bilan bog'liq normativ-huquqiy asoslar ham alohida ahamiyatga

² O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz, 2021.

ega. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining³ 345-moddasiga muvofiq, 103, 103¹, 141² va 141³-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni tergov qilish bevosita prokuratura organlari tergovchilari vakolatiga tegishlidir. Bu esa prokuratura organlarining kiberjinoyatlar bo'yicha tergovga aloqador faoliyatini amaliy jihatdan mustahkamlovchi muhim asos hisoblanadi.

Biroq amaldagi normativ-huquqiy bazani tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 129-sonli sohaviy buyrug'ida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan aniq yo'nalishlar, metodologik yondashuvlar yoki sohaviy ko'rsatmalar o'z ifodasini topmagan. Holbuki, kiberjinoyatlar sonining ortib borayotganligi, ularning murakkabligi, transmilligi va yangi texnologik shakllarda namoyon bo'layotgani prokuratura organlari oldiga yangicha vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashda tizimli va aniq uslubiy yo'nalishlarni belgilab beruvchi, sohaga ixtisoslashgan yangi sohaviy buyruqning qabul qilinishi dolzarb ehtiyojga aylangan.

Jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq, prokuror jinoyat ishi yuritilishini qonuniy asosda tashkil etuvchi asosiy subyekt hisoblanadi. U jinoyat ishi qo'zg'atadi, tergovga qadar tekshiruv materiallarini ko'rib chiqadi, tergov harakatlariga rahbarlik qiladi hamda tergovchilar faoliyatining qonuniyligini nazorat qiladi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha tergov jarayonlari, odatda, yuqori texnik tayyorgarlik va maxsus bilimlarni talab etadi. Shuning uchun, bunday holatlarda prokurorning roli nafaqat protsessual qonunchilikka amal qilinishini ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki tergov harakatlarining haqqoniyligi, to'plangan dalillarning ishonchliligi va qonuniyligi, shuningdek shaxsiy huquq va erkinliklarning buzilmasligini kafolatlashdan iboratdir.

Shu tariqa, prokuratura organlarining axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashishdagi faoliyati nafaqat mavjud qonunchilikka, balki amaliyotda yuzaga kelayotgan yangi ehtiyojlar asosida ham takomillashtirilishi lozim. Bu borada zamonaviy texnologiyalar va raqamli xavfsizlik tendensiyalarini inobatga olgan holda Bosh prokuratura tomonidan ixtisoslashtirilgan sohaviy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari sohasidagi huquqiy asoslarni mustahkamlovchi muhim normativ-huquqiy hujjatlar qatoriga "Axborotlashtirish to'g'risida"⁴gi, "Elektron hukumat to'g'risida"⁵gi qonunlar hamda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun loyihasi kiradi. Ular raqamli makonda axborot xavfsizligini ta'minlash,

³ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son; 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son; 16.02.2022-y., 03/22/754/0134-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son, 24.06.2022-y., 03/22/780/0560-son; 14.03.2023-y., 03/23/822/0143-son; 15.03.2023-y., 03/23/823/0150-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son; 11.05.2023-y., 03/23/841/0270-son; 27.09.2023-y., 03/23/869/0730-son; 19.01.2024-y., 03/24/899/0048-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 05.10.2024-y., 03/24/971/0777-son; 10.10.2024-y., 03/24/974/0804-son; 22.10.2024-y., 03/24/978/0835-son; 28.10.2024-y., 03/24/984/0860-son; 15.11.2024-y., 03/24/997/0923-son; 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son; 05.12.2024-y., 03/24/1009/1004-son; 29.01.2025-y., 03/25/1022/0083-son; 21.02.2025-y., 03/25/1033/0164-son; 26.02.2025-y., 03/25/1038/0188-son; 26.03.2025-y., 03/25/1050/0276-son

⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 11.09.2024-y., 03/24/959/0698-son

⁵ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 21.09.2024-y., 03/24/964/0736-son

davlat boshqaruvida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks huquqiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun axborot resurslaridan samarali foydalanish, ularni himoya qilish, shuningdek davlat organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi. "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun esa davlat boshqaruvi sohasida ochiqlik, shaffoflik va fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlarda samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy normativ asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun loyihasi O'zbekiston axborot makonini kiberxavf va kiberjinoyatlardan himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining huquqiy asosini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, unda axborot tizimlari va resurslari, shaxsiy ma'lumotlar, davlat sirlari va boshqa muhim axborotlarni himoya qilish bo'yicha kompleks choralar nazarda tutilgan.

Mazkur qonunlar va normativ hujjatlarning amalda samarali va sifatli ijro etilishini ta'minlashda prokuratura organlari markaziy nazorat vakolatini amalga oshiradi. Prokuratura axborot xavfsizligi va qonuniylik tamoyillarini ta'minlash maqsadida axborotlashtirish sohasidagi faoliyatni tizimli ravishda o'rganadi va tahlil qiladi. Xususan, davlat va nodavlat subyektlari tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalanishda qonun talablari va belgilangan majburiyatlarga rioya qilinishi ustidan doimiy nazorat o'rnatadi.

Bundan tashqari, prokuratura elektron hujjat aylanishi, raqamli identifikatsiya, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, davlat axborot resurslariga ruxsatsiz kirish holatlarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar yuzasidan baholovchi va tahlil qiluvchi faoliyat olib boradi. Bu orqali prokuratura axborot texnologiyalari sohasidagi qonunbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish va buzilgan huquqlarning tiklanishini ta'minlashda muhim konstitutsiyaviy institut sifatida harakat qiladi.